

# Farzand tarbiyasidagi besh iymoniy asos

[ Ўзбекча – Uzbek – الأوزبكي ]

*Xolid Rushah*

**Tarjimon:** *Abu Abdulloh Shoshiy*

**Nashrga tayyorlovchi:** *Shamsiddin Darg'omiy*

2012 - 1434

IslamHouse.com

# خمسة أسس إيمانية في تربية الأبناء

« باللغة الأوزبكية »

خالد رُوشه

مترجم: أبو عبد الله الشاشي

مراجعة: شمس الدين درغامي

2012 - 1434

IslamHouse.com

## *Bismillahir rohmanir rohim*

Biz har bir shaxsga munosib tarbiyaviy uslublar va vasilalar tanlashda nihoyatda e'tiborli bo'lishga muhtoj bo'lganimiz kabi to'g'ri, daqiq, amaliy tarbiyani ilmiy va tatbiqiy shaklda olib borishga ham muhtojmiz. Darhaqiqat, Islom o'zining tarbiyaviy yo'lini insonning vasfi qanday bo'lishiga qaramay, barchaga munosib bir suratda joriy qildi. Tarbiya asnosidagi barcha muammolarni, farzandlarimiz, hatto o'zimizdagi kasalliklarni davolash uchun bu tarbiyaviy yo'lning ma'nolarini, nozik jihatlari haqida fikr yuritishga, o'rganishga muhtojmiz...

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam farzandlarga tarbiyaviy yo'l va tengsiz oilaviy madrasaga asos soldilar, tarbiya qoidalarini nazariy ravishda tuzdilar, uning yutuqlari amaliy isbot bo'ldi va olam hanuz undagi mislsiz tarbiyaviy ustunlikka guvoh bo'lib kelmoqda.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam farzandlarini tarbiya qilgan va ummatining farzandlarini shu zaylda tarbiya qilishga buyurgan

asoslarning eng muhimlarini bir nechta umumiy asoslarga ajratishimiz mumkin:

### **Birinchi: E'tiqod asosi.**

E'tiqod asosi doimo ustun, tayanch, asos hamda barcha hayot tarzida etakchi bo'lib gavdalanadi, hatto hayotda yuz beradigan mushkulliklar va turli vaziyat o'zgarishlarida ham bosh tayanch hisoblanadi. Shuning uchun Nabiy sollallohu alayhi va sallam e'tiqodni farzand tarbiyasi yo'lining birinchi omili qildilar, zero qalb-e'tiqod zaiflashib, unga lohaslik etsa, uning ortidan fikr, tasavvur, xulq qattiq ta'sirlanadi. Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam farzandlarning qalbida yoshliklaridanoq e'tiqod qaror topib, ular mustahkam yo'lda, teran fikrda o'sib, ulg'ayishlari shart deb bilardilar.

E'tiqodiy asos deganimizda, (*haqiqiy e'tiqod*) farzandlar qalbida Rabbilariga, Uning ism va sifatlariga, ubudiyatiga hamda payg'ambarlarga, samoviy kitoblarga, oxirat kuniga, qadarga va g'aybga iymon keltirishni mumkin qadar o'rnashishini nazarda tutayapmiz. Bu ma'no hayotning hamma jihatlarini o'z qamroviga olgan

hamda barcha payg'ambarlar Rabbilarining tavhidiga va Unga iymon keltirishga da'vat qilib kelgan narsadir.

Nabiy sollallohu alayhi va sallam farzandlarining va ummatlarining qalbida Ollohga iymon keltirish, sog'lom iymoniy e'tiqodni o'rnatirishga haris bo'ldilar, to'g'ri yo'ldan uzoqlashtiradigan fikrlarni qoldirmadilar. Ulovlarida ketarkanlar, orqalariga yosh bola – Abdulloh bin Abbas raziyallohu anhumoni mingashtirib olgan va yo'l-yo'lakay bolaga sof iymoniy, e'tiqodiy darslarni ta'lim berib ketayotganlarini ko'ramiz, Nabiy sollallohu alayhi va sallam shunday derdilar: ***"Ey bola, men senga ba'zi kalimalarni o'rgataman: Ollohni yodda tut, Olloh seni yodida tutadi. Ollohni yodingda tut, U zotni ro'parangda topasan. Agar so'rasang yolg'iz Ollohning o'zidan so'ra. Madad so'rasang yolg'iz Ollohning o'zidan madad so'ra. Bilginki, agar yer yuzidagi hamma odam jamlanib senga biron foyda yetkazmoqchi bo'lishsa, Olloh sening taqdiringga yozgan narsadan ortiq foyda yetkaza olishmaydi. Agar ularning hammasi jamlanib senga biron zarar yetkazmoqchi bo'lishsa, Olloh sening taqdiringga yozgan narsadan ortiq zarar***

***yetkaza olishmaydi. Taqdir qalamlari ko'tarilib, sahifalar qurigandir".*** (Termiziy rivoyati). Payg'ambar alayhissalom yosh bolaning qalbiga Rabbisi bilan mustahkam aloqani, Unga tavakkul qilishni, Uning ma'iyatini (birgaligini), Uni yodda tutishni, Ollohning haqqini qoim qilarkan u kim bo'lishidan qat'iy nazar bashardan qo'rqmaslik keraklini singdirib kelmoqdalar.

### **Ikkinchi asos: Ilm.**

Bu asosning tarbiyaviy ahamiyati shuki, u fahmlashning, hayot tarzini qurishning buyuk kaliti misolida gavdalanadi. Kishining olgan ilmi uning borliqdagi, mavjudoddagi xohishlari va qanoatlarini shakllantiradi. Nabiy sollallohu alayhi va sallam ummatlari uchun manfaatli bo'lgan ilmni ta'lim berishga haris bo'ldilar va ularning ilmga bo'lgan ehtiyojlari yemoq, ichmoqqa bo'lgan ehtiyojlaridan kam emasligini ta'kidladilar. Ularni ilmga qiziqtirib dedilar: ***"Ulamolar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir".*** (Abu Dovud rivoyati). Ularga foydasi bo'lmagan ilmdan Ollohdan panoh so'rashlikni ta'lim berdilar. Manfaatsiz ilm, kishi ilmni yerda oliy bo'lish yoki odamlardan ustun bo'lish uchun talab

qilishligidir. Payg'ambar alayhissalom ummatlariga quyidagicha duo qilishni ta'lim berdilar: ***"Ollohim, men Sendan manfaatsiz ilmdan, qo'rqmaydigan qalbdan panoh tilayman"***. (Muslim rivoyati).

### **Uchinchi asos: Ollohga xolis ibodat qilish va gunoh, ma'siyatlardan yiroq bo'lish.**

Natijali tarbiya uchun ichki sodiqlikni, farzandlar oldida ichki shaxsiyatni bunyod qila oladigan, mumtoz shaxsiy sifatlarga ega kishi bo'lishi kerak, shunda u hayotini behuda narsalardan xalos qilishga, ifloslanmagan, kirlanmagan pokiza, toza bo'lishiga olib boradi, Rabbisi bilan doimo bog'lanib, Uning nazari ostida ekanini his etadi, hayotini va fikrini, qo'yingki orzulari va xohishlarini ham to'g'rilaydi, o'nglaydi.

Kunlardan bir kun Muoz bin Jabal raziyallohu anhu payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning yonlarida namoz o'qidilar, u zot Muozga yuzlanib, qo'llaridan ushlab, ***"Ey Muoz, Ollohga qasamki, seni yaxshi ko'raman. Men senga har namoz ketidan "Ey Olloh! Seni zikr etishga, Senga shukr qilishga va go'zal ibodatingga meni***

***musharraf etgin-ko'mak bergin***", deb aytib uni tark qilmasligingni vasiyat qilaman", dedilar. (Abu Dovud rivoyati). Payg'ambar alayhissalom ibodat Olloh taoloning fazli, Uning ne'mati, mukarram qilgani va saxovati ekanligini, insonning ijtihodi yoki jasadining tetikligi emas, balki Rabboniy tavfiq bilan qilish mumkinligini ta'lim berdilar. Hamma insonga maqbul ibodat yengil bo'lishi uchun Rabbisining tavfiqiga muhtojdir. Payg'ambar alayhissalom shuningdek ibodat Olloh taoloning davomiy madadiga bog'liq ekanligini ta'lim berdilar, chunki Ollohning tavfiqi, ko'magi bo'lmasa inson qilayotgan amali bilan xushnud bo'lib, ajablanishi va natijada (nifoq, kufr, shirk fitnalariga giriftor bo'lib) halok bo'lishi mumkin. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam uning qalbiga mo'min banda Rabbisiga ibodat qilsa, Undangina madad so'rashini, Ungagina tavakkul qilishini, yolg'iz Olloh taolo uni O'zining toatiga muvaffaq qilishi mumkinligini mustahkam joyladilar.

### **To'rtinchi asos: Amal yoki tatbiq.**

Ya'ni ilmga amal qilish. Muhammadiy tarbiya — amaliy tarbiyadir, quruq so'zlarga cheklanmagan



tarbiyadir, doimiy amal va tatbiqqa chaqiruvchi tarbiyadir. Zero beamal ilm, beo'rnak nasihat, beijro tasavvurdan naf yo'q. Payg'ambar alayhissalom farzandlarining ta'limlarini so'zdan amalga yoki fozil xulqqa ko'chishidan yoxud hayot tarzini eng yaxshi tomonga o'zgarishidan iborat bo'lishiga haris bo'ldilar.

Muhammad sollallohu alayhi va sallamning tarbiyaviy ta'limotlariga amal qilish sharaf, haq, vojib va hayotdir, u mukofotning sababi, odamzot orasida fazilatli bo'lishning valilasidir, **"Bas, kim (hayoti-dunyodalik paytida) zarra misqolichalik yaxshilik qilsa, (Qiyomat kunida) o'shani ko'rur. Kim zarra misqolichalik yomonlik qilsa, uni ham ko'rur!"**. Kishi amalini puxta qilishi oliy iymoniy xislatdir, hadisda keladiki: ***"Olloh taolo sizlardan birlaringiz biror amal qilsa, uni puxta qilganini yaxshi ko'radi"***. (Tabaroniy rivoyati). Islomda olimlar erishgan manzillariga ilmlari bilangina erishmaganlar, balki o'sha ilmning ta'siri, asari natijasida ulug' maqomlarga erishganlar, zero olim kishi yerda isloh qilish ishlarini amalga oshirishga qodirroq bo'ladi.

Shuningdek, payg'ambar alayhissalom ummatlariga matlub amal oxiratni obod qilshini va dunyoni isloh qilishini ta'lim berdilar. Dunyoda buzg'unchilik qiladigan, uni xarob qiladigan amalni emas, har bir shaxsning ishsizlikni, g'ayratsizlikni, xizmatdan qochishni to'xtatadigan roli bo'lishini ta'lim berib, ularga shunday dedilar: ***"Sizlardan bittalaringiz arqonini olib, so'ngra toqqa borishi va bir dasta o'tinni orqalab kelib, uni bozorda sotishi va Olloh uning yuzini u bilan (tilanchilikdan) to'sishi, u uchun - so'rasa unga yo beradigan, yo bermaydigan - odamlardan so'rashligidan yaxshiroqdir"***. (Buxoriy rivoyati). Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: ***"Agar qiyomat qoim bo'layotganda sizlardan birortangizning qo'lida bir dona xurmo ko'chati bo'lsa, qiyomat qoim bo'lguncha uni ekishga qodir bo'lsa, ekib qo'ysin"***, – deganlar. (Ahmad rivoyati).

### **Beshinchi asos: Ahloq.**

Payg'ambarimiz ummatlariga husni xulq gunohga moyillik, haddan oshishdan, yo'ldan ozishdan cheklaydigan kishan, tugun ekanini

o'rgatdilar. Axloqsiz kishining do'sti ham, birodari ham bo'lmaydi, uning atrofidan odamlar qochadi, uning yaqin odamlari ham uni yomon ko'radi... Insonda go'zal xulqlarning bo'lmasligi unga nafsining hukmron bo'lishiga va uni nafs-havosi sari yetaklab xatolarni sodir etishiga olib boradi. Xulqi yomon kishi ta'lim oladi-yu, unga ilm yuqmaydi, ilmi zohir bo'lmaydi.

Islomdan boshqa yo'llar o'zgalar bilan ishi bo'lmagan "oliyanob" fuqarolarni shakllantirishga harakat qiladi, Islom yo'li esa, o'zi uchun yaxshi ko'rgan narsani boshqalar uchun ham yaxshi ko'ruvchi axloq sohibi bo'lgan solih insonni shakllantirishga harakat qiladi. Nabiy sollallohu alayhi va sallam dedilar: ***"Men oliy axloqlarni mukammallashtirmoq uchun yuborildim"***. (Ahmad rivoyati). ***"Sizlarning orangizda menga suyuklirog'ingiz va Qiyomat kunida menga yaqinroq manzilda bo'ladiganingiz axloqi go'zallaringizdir"***. (Ahmad rivoyati).